




TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI MIKROMOLIYALASHTIRISHDA MIKROMOLIYAVIY TASHKILOTLARNING ROLINI OSHIRISH MASALALARI

Tojiyev Javlonbek Rustamovich

ORCID:0009-0003-4678-2423

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini mikromoliyalashtirishda mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi, shuningdek qonunchilikda belgilangan tartibda boshqa xizmatlarni ko'rsatuvchi yuridik shaxs bo'lgan mikromoliyaviy tashkilotlar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. 2020-2024-yillar mobaynida aholiga va tadbirkorlik subyektlariga mikromoliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi mikromoliyaviy tashkilotlar soni 3,4 barobarga ko'payib, 193 tani tashkil qildi. 2025-yil 1-yanvar holatiga mikromoliyaviy tashkilotlarning jami aktivlari 7864 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2021-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 9,1 barobarga oshgan. Tahlil qilingan davr oralig'ida ushbu tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatilgan mikromoliyaviy xizmatlar hajmi qariyb 9,7 barobarga o'sgan va 2025-yil 1-yanvar holatiga 7302 mlrd. so'mni tashkil qilgan. Natijada, 2020-2024-yillar davomida mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan kreditlar va mikrolizing xizmatlarining jami aktivlaridagi salmog'i 7 foizli bandga o'sib, o'rtacha 89,1 foizni tashkil qilgan.




1-rasm. Mikromoliyaviy tashkilotlarning jami aktivlari, kreditlari va mikrolizing xizmatlari¹

¹O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulletini ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan (Statistik-byulletin_2024_dekabr.pdf.).

Bunday holat jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda yuridik shaxslarning qisqa va uzoq muddatli mikroqarzlar, mikrokreditlar, shuningdek mikrolizing, faktoring operatsiyalari va boshqa mikromoliyaviy xizmatlarga bo'lgan talabining sezilarli darajada oshganligidan dalolat beradi.

So'nggi yillarda O'zbekistondagi mikromoliyaviy tashkilotlar o'z faoliyatida yuqori barqarorlik va mas'uliyatni namoyon etmoqda. 2024-yil sentabr holatiga ko'ra, to'lov muddati (90 kundan ortiq, 90+) o'tgan muammoli kreditlarning mamlakat mikromoliyaviy sektoridagi ulushi bor-yo'g'i 3 foizni tashkil etgan, bu esa bozorning yetukligini va kredit operatsiyalari bo'yicha risklarning samarali boshqarilayotganligini ko'rsatadi. Muddati o'tgan kreditlar darajasi bozor ishtirokchilari orasida sezilarli darajada farq qiladi: 0 foizdan 58,8 foizgacha. Shu bilan birga, barcha berilgan mikrokreditlarning 77,7 foizini tashkil etuvchi 10 ta eng yirik mikromoliyaviy tashkilotlar yanada barqaror natijalarni ko'rsatmoqda. Masalan, 2024-yilda mikromoliyaviy tashkilotlarda NPL 90+ ulushi "Renesans" uchun 0,3 foizdan O'zbekistondagi eng yirik mikromoliyaviy tashkilot "Shaffof-Moliya" uchun 5,4 foizgacha o'zgarib turgan (2-rasm).

O'zbekistonda mikromoliyaviy bozorning barqarorligini, nafaqat, kredit portfelining o'sishi, balki aksariyat tashkilotlardagi muammoli aktivlarning nisbatan past darajasi ham tasdiqlaydi. Bu sohani yanada rivojlantirish va aholining mikromoliyalashtirish imkoniyatlarini oshirish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish maqsadga muvofiqdir.



2-rasm. 2024-yilda mikromoliyaviy tashkilotlarning kredit portfeli hajmi va muammoli kreditlar salmog'i²

Bir vaqtning o'zida, tijorat banklari va mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan ko'rsatilayotgan mikromoliyaviy xizmatlar ko'lamining kengayishi va hajmining o'sib borishi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat, qurilish, asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chakana savdo aylanmasi va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'sib borayotganligini ko'rsatadi. Tadqiqot

²Микрокредиты в Узбекистане: ключевые тенденции роста.

natijalari kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokredit va mikroqarzlar bilan mazkur subyektlar tomonidan ishlab chiqarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi o'rtasida regression va korrelyasion bog'liqlik mavjud ekanligini ko'rsatdi. Mazkur xulosani asoslash maqsadida quyidagi 1-jadval ma'lumotlari va formuladan foydalanildi³.

Bu yerda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu formula yordamida o'rganilayotgan ikki ko'rsatkichning bir-biriga nisbatan o'zgarishida to'g'ri proporsionallik darajasi o'rganiladi.

$$\left(\bar{y}_x - \bar{y}\right) = \rho_{yx} \left(\bar{x} - \bar{x}\right), r_T = \frac{\sum n_{xy}xy - n\bar{x}\bar{y}}{n\sigma_x\sigma_y}, \rho_{yx} = r_T \frac{\sigma_y}{\sigma_x}, \rho_{xy} = r_T \frac{\sigma_x}{\sigma_y}, R^2 = r_T^2$$


1-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokredit va mikroqarzlar va ular tomonidan ishlab chiqarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (trln. so'mda)

Ko'rsatkichlar	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan mikrokredit va mikroqarzlar	9,5	14,4	25,8	40,1	63,2
<i>Kichik tadbirkorlik subyektlarining:</i>					
Sanoat ishlab chiqarishdagi hajmi	103	124,9	143,9	177,9	286,7
Qurilish ishlaridagi hajmi	63,9	77,9	93,6	159,3	178,7
Asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalardagi hajmi	96,6	109,2	127,6	176,7	255,9
Yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi	253,2	304,5	344,1	403	444,7
Chakana savdo aylanmasining hajmi	164,1	186,8	229,2	287,1	338,8
Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	114,1	147,1	181,2	369,4	466,5


2020-2024-yillar oralig'idagi bog'lanishni o'rganish natijasida determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9761$ ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu yerda $R^2=0,9761$ bo'lgani uchun o'rganilayotgan ko'rsatkichlar orasidagi korrelyasion bog'lanish kuchli, deb xulosa chiqarish mumkin. Yakuniy xulosa shuki, tadbirkorlik subyektlarini mikromoliyalashtirishning rivojlanishi, shu jumladan, mikroqarz, mikrokredit va mikrolizing xizmatlari hajmining ko'payishi tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat, qurilish, asosiy kapitalga kiritilgan investisiyalar, yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chakana savdo aylanmasi va ko'rsatilgan xizmatlar hajmining oshishiga olib keladi.

³Xashimov A.R., Babadjanov Sh.Sh., Xujaniyozova G.S. Iqtisodchilar uchun matematika. Darslik. – T.: Iqtisod-moliya, 2019. 598-607-b.



3-rasm. Tadbirkorlik subyektlariga ajratilgan jami mikroqarz va mikrokredit bilan ular tomonidan ishlab chiqarilgan va ko'rsatilgan xizmatlar hajmi ko'rsatkichlari orasidagi korrelyasion bog'lanish darajasi ⁴

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tijorat banklari va mikromoliyaviy tashkilotlar tomonidan mikromoliyalashtirishda muammoli kreditlarning mavjudligi ham jiddiy muammolardandir. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, "2025-yil 1-yanvar holatiga mamlakatning tijorat banklaridagi muammoli kreditlar (NPL – Non-performing loan) hajmi 21 trln. 185 mlrd. so'mga yetgan va o'tgan yilning shu davriga nisbatan ushbu ko'rsatkich 27,1 foizga o'sgan"⁵. Ta'kidlash joziki, muammoli kreditlar (daromad keltirmaydigan) muddatidan 90 kundan ortiq vaqt o'tgan, qoniqarsiz, shubhali va umidsiz deb tasniflangan kreditlarni o'z ichiga oladi. 2025-yil 1-iyun holatiga tijorat banklari kredit portfeli tarkibida muammoli kreditlar miqdori jami kredit portfelining 4,1 foizini tashkil etgan bo'lsa, mikromoliyaviy tashkilotlarda bu ko'rsatkich 4,0 foizga teng bo'lgan (13-rasm).



4-rasm. Banklar va mikromoliyaviy tashkilotlarda muammoli kreditlar hajmi va salmog'i⁶

⁴Iqtisodiy-matematik tahlil natijalari asosida tadqiqotchi tomonidan ishlab chiqilgan.

⁵O'zbekistonda muammoli kreditlar miqdori 21,1 trln so'mga etdi - Zamin.uz, 25.01.2025.

⁶O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan (Tijorat banklarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida 2025-yil 1-iyun holatiga ma'lumot - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki; Mikromoliya tashkilotlarining muammoli kreditlari (NPL) to'g'risida - O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki).